

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

Ro`zmetov San`atbek Olimboevichning

5230100 - "Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)"

ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**O`zbekistonda aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko`rsatkichlarni
statistik tahlili**

Ilmiy rahbar:

Atabayeva K.

Urganch 2016 yil

MUNDARIJA

Kirish	4-6
1.BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASINI OʻRGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1.Aholining turmush darajasi mazmun- mohiyati va uni tavsiflovchi koʻrsatkichlar.....	7-14
1.2. Aholining hayot darajasi va sifatini belgilovchi asosiy mezonlar.....	15-20
1.3. Aholining turmush darajasi va sifatini belgilovchi koʻrsatkichlar.....	21-27
2-BOB. OʻZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YOʻNALISHLARI	
2.1 Oʻzbekistonda aholi turmush darajasini tavsiflovchi koʻrsatkichlarni statistik tahlili.....	28-40
2.2. Aholi bandligi va turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oʻrni.....	41-49
2.3. Aholi hayot darajasi va farovonligini oshirishning asosiy yoʻnalishlari...	50-54
XULOSA	55-56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI	58-60

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, o'tgan 2015 yil bizning bosh maqsadimiz bo'lmish asosiy vazifa o'z odamlarimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallash bo'yicha avvalo muhim islohotlarni amalga oshirish yo'lida katta qadam bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor.¹

2015 yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi.

O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta. Yurtimizdagi 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz yetarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi farq, ya'ni «detsil koeffitsenti» deb nom olgan ko'rsatkich barqaror pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu raqam 2010 yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015 yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko'rsatkich o'z Jini indeksi mamlakatimizda 2010 yildagi 0,390 o'rniga 2015 yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir.

Mamlakatimizda aholini turmush darajasini yanada rivojlantirish aholini kam ta'minlangan qatlamini yashash sharoitini yaxshilashga, aholi o'rtasidagi ijtimoiy tabaqalashuvni qisqartirishga va mamlakatdagi yalpi talabni oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga keng imkoniyat yaratadi. Yuqoridagilar kelib chiqqan holda

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2015 yilning asosiy yakunlari va 2016 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi\ Xalq so'zi, 2016 yil 15 yanvar.

aytishimiz mumkinki aholi turmush darajasini va farovonligini yanada oshirish bugungi kunda dolzarb bo'lgan mavzulardan hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda aholi turmush darajasini va farovonligini yanada oshirish muammolariga, shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga hamda aholi farovonligini o'sishga ta'sirini o'rganish muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimi va siyosatining iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligiga va aholi daromadlarini shakllanishiga ta'hiri ilmiy qiziqish predmeti bo'lib kelmoqda. Mazkur masalalar Respublikamiz olimlaridan Abdurahmanov Q.H., Umrzoqov B., O'limasov A. va Sharifxo'jaev M. kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi. O'zbekiston aholisini turmush darajasini iqtisodiy statistik tahlil qilish orqali mamlakatimizda uni yanada oshirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari. Bitiruv malakaviy ishini yozishda qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Aholining turmush darajasi mazmun- mohiyati va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'rganish;
- Aholining hayot darajasi va sifatini belgilovchi asosiy mezonlarni o'rganish;
- Aholining turmush darajasi va farovonligini belgilovchi ko'rsatkichlarni o'rganish;
- O'zbekistonda aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni statistik tahlilini amalga oshirish;
- Aholi bandligi va turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rnini o'rganish;

- Aholi hayot darajasi va farovonligini oshirishning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

-

Bitiruv malakaviy ishi obʻekti boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va tizimi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti boʻlib, Oʻzbekiston aholisini turmush darajasini tavsiflovchi koʻrsatkichlarni statistik tahlil qilish va uning ahamiyatini oʻrganish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari. Ishda guruhlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan foydalanildi.

Ilmiy yangiligi:

- Oʻzbekiston aholisini turmush darajasini tavsiflovchi koʻrsatkichlarni statistik tahlili amalga oshiriladi;

- Mamlakatimiz aholisini hayot darajasi va farovonligini oshirishning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ish tarkibi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati, 5 ta jadval va 3 ta rasmdan iborat. Ishning matni 60 betni tashkil etadi.

1.BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Aholining turmush darajasi mazmun- mohiyati va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Mustaqil O'zbekistonning ilk kunlaridan beri izchil va oqilona olib borilganayotgan keng qamrovli islohot tadbirlarning zaminida asosiy va yagona bir maqsad yotibdi - xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 15 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi ma'ruzasida davlatimiz va jamiyatimiz uchun muhim bo'lgan yo'nalishlari va ustuvor vazifalari belgilandi. Ular orasida aholining hayot darajasi va sifatini izchil oshirilishini ta'minlash ana shunday yo'nalish va vazifalardan biri ekanligi ta'kidlandi².

Aholi turmush darajasi deganda aholi farovonligi, neomatlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmui tushuniladi.

Aholi turmush darajasi murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, u biron-bir alohida ko'rsatkich bilan ifodalanmaydi. Shu sababli BMTning Statistika komissiyasi quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya etadi:

- aholining demografik tavsifi (tug'ilish, vafot etish, kasal bo'lish, kelajakda ko'radigan umrining o'rtacha uzunligi);
- sanitariya-gigiena sharoitlari;
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi;
- uy-joy hamda uzoq muddat davomida foydalaniluvchi jihozlar (avtomobil, muzlatgich, televizor va hokazo) bilan ta'minlanganlik;

²Karimov I.A. Mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 6-o'Xalq so'zi gazetasi, 2016 yil 16 yanvar.

- taʼlim va madaniyat;
- bandlik va mehnat sharoitlari;
- aholining daromad va xarajatlari;
- yashash qiymati va isteʼmol narxlari;
- transport vositalari;
- dam olish, fizkultura va sportni tashkil qilish;
- ijtimoiy taʼminot;
- insonning erkinligi.

Turmush darajasini umumlashtiruvchi koʻrsatkichlardan biri sifatida aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarilishi (AQSh dollari yoki Yevroda) qoʻllaniladi. Biroq faqat bu boradagi koʻrsatkichlarning oʻzi turmush tarzi haqida yetarlicha maʼlumot bera olmaydi. Shu sababli undan xalqaro taqqoslashlarda juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak.

Turli mamlakatlarning statistika amaliyotida aholining turmush tarzini oʻrganish uchun koʻpincha quyidagi koʻrsatkichlardan foydalaniladi:

- nominal va real ish haqi;
- aholining nominal va real daromadlari;
- aholi xarajatlari va jamuarmalari;
- aholining uy-joy va uzoq muddat foydalaniladigan jihozlar bilan taʼminlanganligi;
- oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarining eng zarur turlarini isteʼmol qilishi darajasi;
- bandlik va ishsizlik darajasi;
- mehnat sharoitlari koʻrsatkichlari;
 - taʼlim, sogʻliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, turizm va dam olish koʻrsatkichlari.

Ulardan eng muhimlarini koʻrib chiqamiz.

Oylik ish haqi shartnoma asosida yollanib ishlovchi shaxslarning daromadi boʻlib, ishlab berilgan va ishlab berilmagan vaqt uchun barcha pul va natura

koʻrinishidagi toʻlovlarni oʻz ichiga oladi. Ishlab berilgan vaqt uchun toʻlanadigan haq quyidagilardan iborat:

- normal ish vaqti uchun toʻlanadigan haq;
- dam olish va bayram kunlaridagi hamda qoʻshimcha ish uchun toʻlanadigan haq;
- akkord haq toʻlanishi;
- komission toʻlovlar;
- turli xil qoʻshimcha toʻlovlar (staj uchun, brigadani boshqargani uchun; oʻquvchilarni oʻrgatgani uchun, malakasi uchun). Indeksatsiya toʻlovlari va zararli sharoitlardagi mehnat uchun qoʻshimcha toʻlovlar ham shu turkumga kiradi.

Ishdan tashqari vaqt uchun toʻlovlar mehnat taʼtili, bayramlar, mavsumiy mukofotlar va foydadagi ulushdan iborat boʻladi. Ijtimoiy sugʻurta va nafaqa fondlariga toʻlovlar, moddiy yordam, ish tashlaganlarning vaqti toʻlovi, korxonadan ketganda (armiyaga, nafaqaga va hokazo) beriluvchi bir martalik toʻlovlar ish haqi tarkibiga kirmaydi. Shu bilan birga xodimlarga korxonadan tomonidan oilalarga beriluvchi moddiy yordam va uy-joy ijarasi uchun toʻlovlar ish haqi tarkibiga kiradi.

Ish haqi ikki variantda hisoblanadi:

1. Yalpi (soliq va boshqa majburiy toʻlovlar toʻlanguncha),
2. Sof (soliq va boshqa toʻlovlardan soʻng qoʻlga teguvchi).

Xalqaro statistikada oʻrtacha ish haqi bir ishchiga emas, balki bir odam-soatga nisbatan hisoblanadi. Bu jahonning koʻp mamlakatlarida ishchilarning katta qismi toʻliqsiz ish vaqti bilan band ekanligi bilan izohlanadi.

Aholining daromadlari ish haqidan tashqari boshqa manbalardan olingan barcha pul va natural koʻrinishdagi daromadlarni oʻz ichiga oladi. Ularga quyidagilar mansub :

1. Ish haqi shaklida boʻlmagan mashgʻulotlardan olinadigan daromadlar (qalam haqi, shaxsiy tomorqa xoʻjaligidan olingan daromad, yakka tarzda mehnat faoliyatini yuritish tufayli olingan daromad).

2. Korxonalaridan beriladigan ish haqi shaklida boʻlmagan daromad (moddiy yordam, korxonadan ketganda toʻlanuvchi pul va hokazo).

3. Nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya va tovon toʻlovlari.

4. Xususiy mulkdan olingan daromad (foiz, renta, dividend, ijaraga berishdan tushgan daromad va hokazo).

5. Yutuqlar, meros, sovgʻa, sugʻurta toʻlovlari.

6. Nolegal va yashirin faoliyat tufayli olingan daromad; chet eldan olinuvchi daromad (oylik ish haqi, nafaqa, stipendiya, grantlarni oʻtkazish; insonparvarlik yordami va hokazo).

Ish haqi ham, aholining daromadlari ham ikki hil variantda aniqlanishi mumkin:

1. Nominal sifatida.

2. Real tarzda.

Nominal ish haqi va nominal daromadlar bu koʻrsatkichlarning joriy narxlarda aks ettirilishidir. Real ish haqi va real daromadlar oʻz ish haqi va daromadlariga sotib olish mumkin boʻlgan moddiy neʼmat va xizmatlar summasini tavsiflaydi. Real va nominal daromad (ish haqi) oʻrtasida quyidagicha aloqalar mavjud:

$$R_{dar.ish.haqi} = N_{dar.ish.haqi} \div J_{is.baho}$$

Bu yerda: $R_{dar.ish.haqi}$ - real ish haqi yoki daromad;

$N_{dar.ish.haqi}$ -nominal ish haqi yoki daromad;

$J_{is.baho}$ -isteʼmol narxlari indeksi.

Isteʼmol narxlari indeksini hisoblash murakkab hamda muammoli vazifa hisoblanadi. Biroq uni yechish juda katta amaliy ahamiyatga ega. Maʼlumki, istalgan mamlakatda yuz minglab va millionlab isteʼmol mahsulotlari va xizmat turlari mavjud. Shu sababli narxlar indeksini har bir xizmat yoki tovar uchun aniq hisoblab chiqishning iloji yoʻq. Bundan kelib chiqqan holda tovar-namuna usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Uning mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Avval barcha mahsulot va xizmatlar majmuasi bir turdagi guruhlariga boʻlinadi.

2. Har bir guruhda tovar-namuna belgilanadi (koʻpincha bu mazkur guruhda eng katta salmoqqa ega boʻlgan yoki narxi guruhdagi oʻrtacha narxlarga eng yaqin boʻlgan tovar va xizmatlar).

3. Tovarnamunaga narx indeksi aniqlanadi va shu asosda belgilangan guruhlarda narxlarning jamlanma indeksi hisoblanadi.

4. Isteʼmol narxlarining jamlanma indeksi guruhlardagi narx indekslari har bir guruhning ishlab chiqarilgan jami mahsulot va xizmatlar qiymatidagi salmogʻiga koʻra solishtirish yoʻli bilan aniqlanadi:

$$J = \frac{\sum I_0 q_0 \cdot \frac{P_1}{P_2}}{\sum P_0 q_0} = \frac{\sum P_0 q_0 \cdot i_p}{\sum P_0 q_0}$$

Aholining daromadlari joriy xarajatlarni qoplash yoki jamgʻarish maqsadida ishlatiladi. Joriy xarajatlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki sotib olish; kiyim-kechak va poyabzal sotib olish; uy-joy, isitish va yoritish tizimi; mebel, uy jihozlari; sogʻliqni saqlashga qaratilgan xarajatlar; transport va aloqa xizmati; taʼlim, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, dam olish va turizm hamda boshqa moddiy neʼmat va xizmatlar uchun qilinadigan xarajatlar kiradi.

Alohida qayd qilib oʻtish kerakki, joriy xarajatlarni guruhlariga taqsimlash har bir mamlakat uchun yuzaga kelgan statistika amaliyotiga bogʻliq holda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi.

BMT ning Statistika qoʻmitasi tomonidan tavsiya etilgan umumiy koʻrsatkichlardan biri, bu o daromadlar konsentratsiyasi koeffitsientidir. U koʻproq oʻDjini indeksiö nomi bilan tanilib, taqsimlashning amaldagi chetga ogʻishlari darajasini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, agar biror mamlakat aholisining oʻrtacha daromadi maʼlum boʻlsa aholining maʼlum bir guruhi daromadlarini mamlakatdagi oʻrtacha daromadga boʻlish yoʻli bilan daromadlar

konsentratsiyasi koeffitsientining necha foizga oshganligini osongina hisoblash mumkin.

O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta. Yurtimizdagi 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz yetarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi farq, ya'ni «detsil koeffitsenti» deb nom olgan ko'rsatkich barqaror pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu raqam 2010 yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015 yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko'rsatkich ó Jini indeksi mamlakatimizda 2010 yildagi 0,390 o'rniga 2015 yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir.

Aholining jamg'armalari uning daromadlari va joriy xarajatlari orasidagi farqni anglatadi. Jamg'armalar pul yoki natural ko'rinishida bo'lishi mumkin. Pul jamg'armalari aholi qo'lidagi pul mablag'larining o'sishini yoki qimmatbaho qog'ozlarga (aktsiya, obligatsiya, sertifikat va hokazo) kiritilgan mablag'larning o'sishini anglatadi. Natural ko'rinishdagi jamg'armalar aholiga tegishli bo'lgan yer maydonlari, asosiy kapital (uy-joy, xo'jalik inshootlari, transport va hokazo) va moddiy zahiralarning ortishini anglatadi.

Aholining uy-joy sharoitlarini tavsiflashda xalqaro statistika birinchi o'rinda uy-joy egalarini ajratib ko'rsatadi. Bu maqsadda jami uy-joy fondi xususiy (undan o'z egasi foydalangan holda), ijaraga olingan va davlatga tegishli turlarga bo'linadi. Ayrim oilalar bir nechta uy-joyga ega bo'lganliklari sababli (ba'zan boshqa shahar va davlatlarda) statistikada birlamchi rezidentsiya (egasi o'z vaqtini ko'proq o'tkazuvchi joy) va ikkilamchi rezidentsiya ajratib ko'rsatiladi.

Uy-joy sifatini o'rganishda uyning qavatlarini, devorlarning materiali, shiftning balandligi, maishiy-kommunal qulayliklar (elektr toki, gaz, suv, vannaxona, telefon va hokazo) bilan ta'minlanganlik darajasiga asosan guruhlashdan foydalaniladi. Xususiy uy-joy uchun unga tegishli bo'lgan yer maydoni

ko'rsatiladi. Aholining uy-joy bilan ta'minlanganligini umumlashtirib tavsiflash uchun belgilangan standart talablariga javob bermaydigan uy-joylarda yashovchilar soni va ularning aholi umumiy sonidagi salmog'i hamda har bir uy uchun to'g'ri keluvchi xonalar soni ko'rsatkichlari ham qo'llaniladi. Farb mamlakatlarining uy-joy bilan ta'minlash standartida bu holda har bir yashovchiga bitta xona va yana qo'shimcha ravishda umumiy xona to'g'ri kelishi ko'zda tutilgan.

Aholining uzoq muddat xizmat qiluvchi turli jihozlar bilan ta'minlanishiga kelganda esa, xalqaro statistikada bunday jihozlarning har 100 ta oilaga yoki har 1000 kishiga to'g'ri kelishi hisobga olinadi. Bu avtomobil, muzlatgich, sovutgich, televizor, telefon, kir yuvish mashinasi, changyutgich va hokazolarga tegishlidir.

Aholining oziq-ovqat va noziq-ovqat mahsulotlarining eng zarur turlarini iste'mol qilishini tavsiflash jami aholi, shuningdek turli ijtimoiy-kasbiy guruh a'zolarining go'sht, sut, baliq, tuxum, non va boshqa mahsulotlarni aholi jon boshiga o'rtacha yillik iste'molini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishda faqatgina miqdorga emas, sifatga ham e'tibor beriladi. Bu maqsadda iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining kaloriyalilik darajasi, shuningdek, oqsil, uglevod va vitaminlar bilan ta'minlanganlik darajasi ham hisobga olinadi. Biroq xalqaro statistika amaliyotida bunday ko'rsatkichlar zarur axborotlarning yetishmasligi sababli kamdan-kam hollardagina ishlatiladi.

Bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari ham aholi turmush tarzini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Aholi daromadlari strukturasi bu ko'rsatkichlarga bog'liq bo'ladi, chunki daromadlarning asosiy manbai mehnat bilan shug'ullanish orqali qo'lga kiritiladi.

Xalqaro statistika amaliyotida mehnat sharoitlari ko'rsatkichlari aholining demografik tasnifi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mehnatga layoqatli yosh chegarasi.
2. Ish xaftasining belgilangan hamda amaldagi davomiyligi (iqtisodiyotning tarmoq va sektorlari bo'yicha).

3. Haq to'lanuvchi mehnat ta'atilining davomiyligi.

4. Bevosita ish joylaridagi mehnat sharoitlari ko'rsatkichlari (chang, shovqin, vibratsiya, turli xil nurlanish, mehnatdan toliqish darajasi, noqulay holat, ko'p harakatlanish zaruriyati).

Aholining madaniyati va ma'dumoti darajasini o'rganish uchun BMT Statistika qo'mitasi quyidagi bir qator ko'rsatkichlarni tavsiya qiladi:

a) savodsizlar soni va ularning o'savodlilik yoshi o dan (bu yosh har bir mamlakat uchun muayyan sharoitlar asosida alohida belgilanadi) katta yoshdagilar sonidagi salmog'i;

b) maktabga bormayotgan maktab yoshidagi bolalar soni;

v) boshlang'ich va o'rta maktablarda o'qiyotganlar soni va tarkibi;

g) har 100 ming kishiga oliy o'quv yurtlari talabalari soni;

d) har 100 ming kishiga kundalik gazetalar soni;

e) har 100 ming kishiga kitoblar tiraji soni va shu kabi boshqa ko'rsatkichlar.

Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) sog'liqni saqlash muassasalarining soni va quvvati (statsionardagi joylar soni yoki bir smenada keluvchilar soni bilan o'lchanadi);

b) aholining tibbiy xodimlar bilan ta'minlanganligi (har 1000 kishiga to'uri keluvchi shifokorlar soni, jami va mutaxassisliklar bo'yicha; tibbiy kadrlarni tayyorlash);

v) tibbiyot muassasalari faoliyati ko'rsatkichlari (statsionarlardagi bemorlar soni; tuzalib ketgan bemorlar soni; tibbiyot muassasalaridagi o'lim hollari va hokazolar);

g) sog'liqni saqlashning barcha manbalar hisobiga moliyalashtirishning umumiy hajmi.

So'ngi paytlarda turmush tarzini tavsiflashda fuqarolar huquqlari va erkinligining real amalga oshirilishi: so'z erkinligi, vijdon erkinligi, harakatlanish erkinligi va hokazo; munosib hayot kechirish huquqi, mehnat qilish, dam olish, ma'dumot olish, ijtimoiy himoyalanish huquqlariga rioya qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

1.2. Aholining hayot darajasi va sifatini belgilovchi asosiy mezonlar.

Mamlakatimizda aholining hayot darajasi va sifatini izchil oshirilishini taʼminlash hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada 2011 yilning yanvar oyida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oʻBMT Mingyillik maqsadlarini Oʻzbekistonda amalga oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida oʻ maxsus qaror qabul qilinganini esga olishimiz zarur. Unda Oʻzbekistonda BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlariga muvofiq aholi turmush darajasi va sifatini izchillik bilan yuksaltirish uchun zarur boʻlgan qoʻshimcha choralarni amalga oshirish maqsadida barcha vazirliklar, idoralar, markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining mamlakatda inson salohiyatining muttasil rivojlanishini taʼminlashga qaratilgan kompleks harakat dasturi belgilangan edi³.

Jahonning barcha rivojlangan davlatlari qatorida Oʻzbekistonda ham qabul qilingan oʻInson taraqqiyoti kontsepsiyasi oʻga koʻra, har bir jamiyatning rivojlanishi markazida faqat oddiy iqtisodiy koʻrsatkichlar emas, balki avvalo, inson turishi kerak. Inson taraqqiyotning pirovard maqsadi va uning samarasining bosh mezonini oʻ odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning tabiiy, jamiyatda umumeʻtirof etilgan qadriyatlarga mos keladigan maʼnaviy va moddiy ehtiyojlarini sifatliroq qondirish, yanada yuqori turmush darajasiga erishish demakdir.

Bashariyat tarixida jamiyatlar, millatlar va xalqlarning dunyoqarashi, madaniyati, qadriyatlari turlicha boʻlsa-da, oʻturmushning yuqoriroq darajasi oʻ deganda qarashlar bir-biriga oʻxshashligi va uygʻunligi maʼlumdir. U birinchi navbatda oilaviy farovonlik, salomatlik, uzoq umr koʻrish, moddiy farovonlik, maʼlumotning yuqori sifat darajasi, nafaqat salmoqli daromad, balki mehnatdan maʼnaviy qoniqish, jamoatchilik orasida obroʻ-orttirish, xavfsizlik, madaniy xordiq

³Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi oʻOʻzbekistonda BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida oʻgi 21-sonli qarori. // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami. 2011 yil. 4-5-son. 35-modda.

kabi tushunchalarni qamrab oladi. Odamlar har doim shaxs va fuqaro sifatida o'z dunyoqarashini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishni, jamiyat hayotida ishtirok etishni, ularning huquq va erkinliklari hurmat qilinishini, fikrlari e'tiborga olinishini har doim qadrlab kelishgan va qadrlashadi.

Yuqorida qayd etilgandardan kelib chiqib, bugungi kunda inson taraqqiyotini baholash quyidagi printsiplar va uchta komponentga asoslanadi:

1. Farovonlik. Inson taraqqiyoti faqatgina ijtimoiy siyosat sohasi bilan cheklanadi deb o'ylash xato bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishsiz, iqtisodiy salohiyatni ko'tarmasdan, odamlarning ehtiyojlarini qondirish va imkoniyatlarini kengaytirishga erishib bo'lmaydi. Inson taraqqiyoti kontseptsiyasini faqat ta'lim va sog'liqni saqlash, gender rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurash ko'rsatkichlari kabi ijtimoiy mezonlar statistikasi asosida tahlil qilish noto'g'ri. Ushbu ma'lumotlar jamg'arish va investitsiyalar, ishlab chiqarish va iste'mol qilish, savdo va texnologiyalar kabi ko'rsatkichsiz inson taraqqiyoti haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Oxir-oqibat, jamiyatning rivojlanishini uning samaradorligiga, ya'ni odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun resurslardan foydalanish optimalligiga ko'ra baholash lozim. Shu sababli inson taraqqiyotining bosh uch komponentidan bittasi farovonlik hisoblanadi.

2. Huquq va imkoniyatlarning kengayishi. Inson taraqqiyotining darajasi rivojlanish masalalarini hal qilishda insonning o'zi qanchalik ishtirok etayotgani va ushbu jarayonni takomillashtirida hal qila olishdagi shaxs sifatidagi qurbi bilan ham belgilanadi. Axir inson shu borada rivojlanish jarayonining nafaqat ob'ekti, balki sub'ekti sifatidagi faolligi ham muhimdir.

3. Adolat. Har bir jamiyatning rivojlanish darajasi imkoniyatlar tengligiga, ya'ni ushbu jamiyatda aholining turli namoyonlari va guruhlari o'rtasida huquq va majburiyatlar taqsimlanishi adolat printsiipiga ko'ra baholanishi kerak. Imkoniyatlar tengligi o' mavhum tushuncha emas. U aniq, real hamda huquqiy va iqtisodiy ta'minlashni talab qiladi. Uning mohiyati shundaki, jamiyatda muayyan belgiga, shu jumladan, jinsiga ko'ra, huquqiy va iqtisodiy kamsitish, ko'proq yoki kamroq imtiyozlarga ega etnik guruhlari, ekspluatatsiya qilinuvchi sinflar

bo'lasligi kerak. Nogironlarga tizimli yordam alohida e'tiborni talab etadi. Bunday adolatni o'rnatish omillari orasida qonunchilikda mustahkamlangan va amaliyotda qo'llanadigan siyosiy huquq va erkinliklar, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlaridan foydalanish, mikromoliyalash tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va boshqalar mavjud.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining umumiy e'tirof etilgan uchinchi komponenti o' ijtimoiy adolat, natijalarning barqaror ta'minlangani, inson huquqlarini hurmat qilish hisoblanadi. Inson taraqqiyoti kontseptsiyasi, iqtisodiy o'sish nazariyasidan farqli o'laroq, ijtimoiy taraqqiyotga uzoq muddatli jarayon sifatida qaraydi. Faqatgina bugun yashayotgan insonlar ehtiyojini qondirish haqida o'ylash bilan cheklanmasdan, kelajak avlodlar uchun munosib hayotni ta'minlash haqida fikr yuritmoq zarur.

Inson taraqqiyoti kontseptsiyasi o' bu samarali va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda uni mantiqiy yakuniga izchil ravishda yetkazish, ya'ni odamlar imkoniyatlarini kengaytirish, ularning iqtisodiy va siyosiy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, bugungi va kelgusi avlodlarning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishdir⁴.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun real shart-sharoitlarni yaratuvchi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ahamiyatga molik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biz o'z oldimizga qo'yayotgan maqsad esa barchamizga yaxshi ma'lum o' bu zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish va uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat⁵.

⁴O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, O'zbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi. O'zbekiston: Amaliy qo'llanma. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti printsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta'minlanishi, 2011.

⁵O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljalangan prognozlar: statistik to'plam. o' T.: o'O'zbekistonö, 2011, 3-4-b.


O'zbekiston hukumati o'z zimmasiga mamlakatimizda kam ta'minlangan toifa miqdorini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik printsiplarining yanada rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida Mingyillik rivojlanish maqsadlari borasida ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, BMTning turli tarkibiy tuzilmalari bu borada moliyaviy yordam berish va mamlakatimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali ko'maklashishga hozirligini izhor etadi. O'zbekistonning 2015 yilgacha bo'lgan davrdagi vazifasi kam ta'minlangan aholi hissasini 50 foizga qisqartirishdan iborat. Mamlakatimizda aholini aniq maqsadli va yuqori samarali ijtimoiy muhofaza qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar hamda yuksak iqtisodiy o'sish va aholini ijtimoiy zarur mehnat bilan bandlik ko'rsatkichlarini susaytirmasdan ta'minlash halqimiz farovonligini yanada oshirish imkonini beradi.

Bu borada, ayniqsa milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari oshirib borish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa bo'lib qoldi.

Birinchidan, ohirgi 10 yil ichida aholining daromad shakllari tubdan o'zgarib, ularning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari ó tadbirkorlik faoliyatidan, (ko'chmas) mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shilganini ta'kidlash zarur.

Ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ularning miqdor va sifat jihatlari ham tubdan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsienti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi.

Uchinchidan, aholi daromadlaridan samarali foydalanishning yangi yo'nalishlari vujudga keldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir.



1.2.1-rasm. Turmush sifatining shakllanishiga taʼsir koʻrsatadigan omillar.

Shu alohida taʼkidlash joizki, aholining oʻsib borayotgan daromadlarining darajasi qanchalik yuqori boʻlsa, uning zaruriy ehtiyojini ham qondirish imkonlari: oʻzining va oila aʼzolarining salomatligini saqlash, umumli dam olishini tashkil etish, yuqori sifatli maʼlumot olishi, boʻsh vaqtlarini madaniy tarzda oʻtkazishdek tadbirlar shunchalik koʻp boʻla boshladi.

Barchamizga yaxshi ayonki, har qaysi inson, har bir oila, millati, tili va dinidan qatʼi nazar, dunyoga kelib, farzand koʻrib, uni sogʻlom va barkamol koʻrishini niyat qiladi. Shirin farzandiga bor ezgu-umidlarini bogʻlaydi va uni baxtli yashashi uchun bor imkonini ayamaydi. Bunday yuksak orzuga yetishning sharti va garovi boʻlgan omillarni davlatimizning siyosati darajasiga koʻtarilishi, uni har kunlik faoliyatimizda bosh mezoni qilib olganimiz quvonchli va sharaflidir. Ular orasida hayotimizga maʼno-mazmun beradigan, uni yanada yorugʻ va fayzli qiladigan yana bir omil borki, u ham boʻlsa, insonning oʻz uyi, oʻz farzandi kamoli, oʻz yurtini har tomonlama taraqqiy etib borishidan shukronalik qilishi, magʻrurlanishi va mamnun boʻlib, yashashida yaqqol namoyon boʻladi.

Bunday mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, oʻzbekona aytadigan boʻlsak, barchamizning harakat va intilishlarimiz negizida avvalambor yurtimiz,

Vatanimizda yashayotgan har bir kishi, har bir oila har tomonlama rivoj topishi, inson erkin nafas oladigan, tinch va farovon yashaydigan hayot barpo etish gʻoyasi mujassam ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Ayni shunday orzu-niyatlar bilan kundalik hayotimizni toʻldirish, ularni hayotimizning maqsadiga aylantirish, shunday gʻoya va intilishni amalga oshirish uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, hech shubhasiz, bugungi kunda har birimizda gʻoyat mamnunlik va cheksiz magʻrurlik xis-tuygʻularimizni oshirib boradi..

Bu borada mamlakatimizdagi koʻp yillik tajribadan maʼlumki, har bir yil nomi bilan bogʻliq maqsad va vazifalar, aniq chora-tadbirlar, ularning bajarilish muddatlari, moliyaviy manbalari, mutassaddi idora va tashkilotlarining batafsil bayon etilgan davlat dasturlari shakllantirilib, ular maxsus qaror orqali ijro uchun qabul qilinadi. Bunday dasturlarning puxta va hayotiyliigi, ularda belgilangan chora-tadbirlarning qoʻyilgan maqsad va vazifalarni toʻliq qamrab olishi pirovardida qilingan saʼy-harakatlar, erishilgan natijalarning salmoqli boʻlishiga xizmat qiladi.

1.3. Aholining turmush darajasi va farovonligini belgilovchi ko'rsatkichlar.

Kishilarning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini aholining muayyan guruhiga mansubligini anglashi ularning turmush darajasi va sifatining umumiy hamda yakuniy indikatorini hisoblanadi. Bu borada, albatta, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, odamlar istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, aholini sifatli iste'mol tovarlari, shu jumladan, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan ta'minlash, zamonaviy talablar asosida ta'dim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan bahramand bo'lish kabi hayot darajasini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlar inobatga olinadi.

1. Turmush darajasining integral ko'rsatkichlari

1.1. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar:

- aholining real ixtiyordagi daromadlari;
- aholining real tuzatilgan daromadlari;
- uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari;
- uy xo'jaliklarining haqiqiy iste'mol xarajatlari;
- o'rtacha ish haqi (nominal va real).

1.2. Demografik ko'rsatkichlari:

- doimiy aholi soni dinamikasi;
- kutiluvchi turmush davomiyligi;
- chaqaloqlar, bolalar va onalar o'limi;
- aholining savodlilik darajasi.

1.3. Aholining iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari:

- aholining iqtisodiy faollik darajasi;
- iqtisodiyotda bandlarning va aholi umumiy soni nisbati;
- ishsizlik darajasi.

1.4. Aholining pensiya ta'minot darajasi:

- pensionerlar soni (jami va shu jumladan yosh bo'yicha);
- belgilangan oylik pensiyalar miqdori (jami va shu jumladan yosh bo'yicha);
- yosh bo'yicha belgilangan o'rtacha oylik pensiya miqdori va keksalarni minimal miqdori.

2. Aholining moddiy ta'minlanganligi ko'rsatkichlari:

2.1. Uy xo'jaliklari daromadlari:

- uy xo'jaliklarining yalpi va pullik nominal hamda real daromadlari (umumiy va *);
- daromadlarning xarid qobiliyati;
- IBK;

2.2. Aholining alohida qatlamlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishidagi tengsizlik:

- aholi daromadlarining tabaqalashuvining detsil koeffitsienti;
- daromadlarining konsentratsiya koeffitsienti (Jini koeffitsienti);
- fondlar koeffitsienti;
- aholining kvantil guruhlar bo'yicha daromadlarning taqsimlanishi.

2.3. Aholining kambag'alligi ko'rsatkichlari

- yashash minimumi kattaligi;
- kambagʻallik chegarasi;
- qashshoqlik chegarasi;
- kambagʻallik koʻlami koʻrsatkichlari (*birlamchi, dastlabki kambagʻallik, ikkilamchi kambagʻallik, kambagʻal aholining pullik daromadlari taqchilligi, kambagʻallik keskinligi va chuqurligi*).

- yashash minimumi kattaligi;
- kambagʻallik chegarasi;
- qashshoqlik chegarasi;
- kambagʻallik koʻlami koʻrsatkichlari (*birlamchi, dastlabki kambagʻallik, ikkilamchi kambagʻallik, kambagʻal aholining pullik daromadlari taqchilligi, kambagʻallik keskinligi va chuqurligi*).

- minimal isteʼmol oʻsavati oʻqiymati;
- aholining isteʼmol xarajatlarining joriy va taqqoslama baholardagi dinamikasi va tarkibi;
- ixtiyordagi daromad va isteʼmol xarajatlarida oziq-ovqat xarajatlari ulushi;
- asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining jon boshiga isteʼmoli, shu jumladan, katta yoshdagi isteʼmolchilarga hisoblangan oziq-ovqatlar ulushi;
- minimal isteʼmol oʻsavati oʻning oziq-ovqat tarkibi va kaloriyaliligi.

4. Aholining turar-joy sharoitlari:

- aholining uy-joy bilan taʼminlanganligi (mamlakatning har bir fuqarosiga toʻgʻri keluvchi umumiy va yashash maydoni);

➤ aholining isteʼmol xarajatlarida turar-joy uchun toʻlov xarajatlari ulushi.

5. Ijtimoiy keskinlik:

➤ jinoyatchilik koeffitsienti.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori surʼatlarda barqaror oʻsib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta koʻrib chiqilishi, taʼlim, sogʻliqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini ragʻbatlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini taʼminladi.

Oʻzbekistonda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan taʼminlangani, aholini sifatli isteʼmol tovarlari bilan taʼminlash, zamonaviy talablar asosida taʼlim olish hamda sogʻliqni saqlash tizimi kabi indeks va koʻrsatkichlar boʻyicha katta oʻzgarish va yutuqlarga erishildi. Bu haqda soʻz yuritilganda, shuni aytish joizki, ayni paytda oilalarning 97 foizi oʻz uyiga ega, aholining 90 foizi uzoq muddat foydalaniladigan barcha asosiy tovarlar bilan taʼminlangan, har 3 oiladan biri shaxsiy yengil avtomobilga ega, aholi isteʼmol mahsulotlari bilan yetarli darajada taʼminlanmoqda.

Mustaqillik yillarida sogʻliqni saqlash sohasiga qilingan harajatlar 3,6 barobar oʻsdi va bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 4 foizni, Davlat byudjetida esa 15,7 foizdan ortiqni tashkil qilyapti. «Sogʻlom ona ó sogʻlom bola» mavzusidagi xalqaro simpoziumda ishtirok etgan Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Margaret Chen xonimning «Prezident Islom Karimov tomonidan eʼlon qilingan «Sogʻlom ona ó sogʻlom bola» tamoyilining xayotga tatbiq etilishi bugungi va kelajakda barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi eng toʻgʻri yoʻl boʻlib, har bir odamning va butun aholining salomatligini taʼminlashning

kafolatidir. O'zbekistonning sog'liqni saqlash modeli boshqa ko'plab mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin» degan so'zlari ushbu fikrning tasdiqidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan «Sog'lom ona ó sog'lom bola» dasturi umummilliy harakatga aylandi. Muruvvat uylari, maxsus maktab-internatlarining moddiy-texnik bazasi ham mustahkamlanib, ta'lim-tarbiya, sog'lomlashtirish tizimi tobora takomillashmoqda. Sog'liqni saqlash tizimida olib borilgan islohotlar natijasida erishilgan yutuqlar xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. 2010 yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'zbek tibbiyot modeli boshqa mamlakatlarga namuna sifatida tavsiya etildi. Buyuk Britaniyaning «Save the children («Bolalarni asraylik») tashkiloti tomonidan 2011 yilda O'zbekiston ó 161 ta davlat orasida bolalar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha 10 ta yetakchi davlat safidan o'rin egalladi⁶.

Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov yosh avlodning salomatligi haqida doimiy g'amxo'rlik qilmoqda. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, bolalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning muhim omillaridan biri uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etishdir.

Uch bosqichli sport o'yinlari dunyoda beqiyos sanaladi. Vatanimiz sportining keng rivojlanishi tufayli yoshlarimiz orasidan dovrug'i respublikamizda va xalqaro miqyosda keng tanilgan sportchilar yetishib chiqmoqda va ularning safi tobora kengayib borayotir. «Umid nihollri», «Barkamol avlod» va Universiada sport musobaqalari yoshlarimizni tarbiyalash, chiniqtirish hamda ularning g'alabaga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda o'ziga xos katta maktab vazifasini o'tamoqda. Ushbu sport o'yinlarini o'z ichiga olgan uch bosqichli noyob tizimning bamisoli qudratli to'liqinga aylanib, million-million bolalarimizni o'z safiga qamrab olayotgani, ularning ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lom bo'lib ulg'ayish uchun xizmat qilayotganini mamnuniyat bilan ta'kidlash lozim. Ayniqsa, bu tizimning

⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. ó T.: «O'qituvchi» NMIU, 2012. ó 132-6etlar.

yuqori bosqichi boʻlgan Universiada musobaqalari yoshlarimiz uchun tom maʼnoda chiniqish va kamolot maktabiga aylangani eʼtiborlidir.

Oʻtkazilgan soʻrovlarga koʻra, ayni paytda Oʻzbekistonda aholining 50 foiziga yaqini oʻzini oʻrta toifaga mansub deb biladi. Holbuki, 2000 yilda atigi 24 foiz aholi oʻzini shu toifaga mansub deb bilar edi.

Shuni unutmash kerakki, oʻrta sinf ulushining yuqoriligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamini va asosi, davlatning barqarorligi va mustahkamligining, odamlarning oʻz kelajagiga boʻlgan ishonchning muhim omili sifatida qabul qilinadi.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati, aholi turmush darajasi va hayot sifatini oshirish boʻyicha erishilgan yutuqlar yetakchi xalqaro tashkilotlar hamda ekspertlar hamjamiyati tomonidan eʼtibor etilib, xolisona baholanmoqda.

2012 yilda Buyuk Britaniyaning xalqaro miqyosda tan olingan Legatum instituti oʻzining Farovonlik va rivojlanish indeksida Oʻzbekistonni dunyo mamlakatlari orasida haqli ravishda 64-oʻringa kiritgani eʼtiborga loyiqdir.

Ijtimoiy farovonlik, jumladan, umr koʻrish davomiyligi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligi, ishsizlik darajasining pastligi, ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish darajasi ham Oʻzbekiston jahon hamjamiyatida oʻzgalar havas qiladigan oʻrinni mustahkam egallab turibdi.

Har yili davlat byudjetining qariyb 60 foizi sogʻliqni saqlash, taʼlim, kommunal xoʻjalik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bogʻliq boshqa sohalarni rivojlantirish uchun yoʻnaltirilmoqda. Yurtimizda odamlarning oʻrtacha umr koʻrish darajasi 67 yoshdan 73 yoshga yetdi, onalar oʻlimi 3,1 barobardan ziyod, bolalar oʻlimi esa 3,2 barobar kamaydi.

Taʼkidlash kerakki, erishgan ana shunday barcha yutuqlarimizning zamirida avvalo millionlab yurtdoshlarimizning kundalik fidokorona mehnati, oʻz umrini oʻtab boʻlgan boshqaruv va xoʻjalik yuritish tizimidan voz kechilgani,

mamlakatimizni tubdan isloh etish va modernizatsiya qilishning har tomonlama chuqur oʻylangan dasturi mujassamdir⁷.

Aholining har bir aʼzosi turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi. Shu maʼnoda, aholi muhofazasini taʼminlashdagi birinchi va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatlardagi oʻrni hamda nufuzini koʻtarish bilan bogʻliq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilangina emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yoʻnaltirilgani bilan ham baholanadi.

⁷Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va koʻrsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga moʻljallangan prognozlari: statistik toʻplam. ó T.: ðOʻzbekiston, 2011, 6-7-b.

2.BOB. O‘ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

2.1. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni statistik tahlili.

2015 yil mobaynida davlatimiz hukumati tamonidan aholi daromadlarining miqdorining oshirish borasida muhim tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy dasturlar amalga oshirildi. Bu davlat tadbirlari aholimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishdagi ijobiy taʼsiri yilning asosiy yakunlaridagi raqamlarda o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2016 yil 15 yanvar kuni bo‘lib o‘tgan mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi o‘z ma‘ruzasida 2015 yilda O‘zbekistonda aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshgani, o‘rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 21,9 foizga ko‘paygani haqida aytib o‘tdilar.

Bu muhim raqamlar mustaqillik yillari davlatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning yorqin namoyondasi ekanligiga eʼtiborimizni jalb etib, dunyo moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy taʼsiriga qaramay, ijtimoiy sohada, avvalam bor jamiyatimizning ijtimoiy muhtoj qatlamlariga qaratilgan ijtimoiy yordam tadbirlari izchillik bilan olib borilganidan dalolat berayotganini namunasi sifatida o‘z o‘rnini topdi.

O'zbekistonda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar % da	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Yalpi ichki mahsulotning o'sishi	9,5	9,0	8,1	8,5	8,3	8,2	8,0	8,1
Sanoat mahsulotning o'sishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3	7,7	8,8	8,3
Xizmat ko'rsatish hajmi	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1	15,0	13,5	15,7
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4	13,9	14,8	14,3
Davlat byudjetining bajarilishi	+1,1	+1,5	+0,2	+0,3	+0,4	+0,4	+0,3	+0,2
Inflyatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,3	7,6	7,0	6,8	6,1
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqining oshishi	44,2	40,0	40	32	26,5	26,5	20,8	23,2
Aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi	27,0	23,0	26,5	23,5	23,1	17,5	16,0	10,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2000 yil bilan taqqoslaganda, 2013 yilda real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar 2015 yilda esa aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga ko'payganini alohida ta'kidlash zarur. Prezidentimiz ushbu muhim ijtimoiy ko'rsatkichlar zaminida O'zbekistonda istiqomat qilib turganlarning har kunlik turmush darajasi naqadar o'zgarganligidan dalolat berayotib katta g'urur va iftixor bilan urg'u berdilar. Ushbu yo'nalishdagi mutaxassislarimizning iqtisodiy-ijtimoiy hisob-kitoblarga ko'ra, 2000 yildan 2013 yilgacha davr ichida davlatimizda shakllanib borayotgan o'rtacha ish haqi aholining iste'mol savatchasi bahosidan 4,8 barobardan ziyod oshdi.

Bu tendentsiyalarning yana bir muhim tomoni oilalar daromadlari oshishi. Buning quvonarli tomoni o' shu davr orasida oilalar daromadi nafaqat miqdor jixatidan, balki uning tarkibi jixatidan ham tubdan o'zgarimoqda. Birinchi galda oilalarning ko'pchilik qismi asosan tadbirkorlik evazidan olinayotgan daromadlar aholi yalpi daromadlarining yarmidan ziyodini tashkil etdi. Holbuki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 20-25 foizdan oshmaydi.

Davlatimizning umumiy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning yana bir muhim jihati shundaki, aholi o'rasida daromadlarning keskin o'sish tendentsiyasi, ular orasida nomutanosiblik, ya'ni, iqtisodiy atama bilan aytganda, keskin differentsiatsiyaga olib kelamayotganligidir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning daromad ko'rsatkichlariga salbiy ta'siri natijasida ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa, qo'shni davlatlarda eng past va eng yuqori daromad oladigan aholi guruhleri o'rtasidagi tafovut ko'rsatkichdan bir necha barobar oshib borayotgan bir paytda, O'zbekistonda bu darajasi ko'rsatkichi so'nggi yillarda 8 barobaridan oshmaganligi ijobiy ko'rsatkich, albatta .

Aholimiz o'rtasidagi ushbu ko'rsatkich hukumatimiz tomonidan olib borayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning pirovard natijasi tufayli aholi o'rtasida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlari kafolatli adolat mezonlarida olib borilayotganidan yorqin dalolat bermoqda.

Miliy iqtisodimizning keskin o'sishiga uning ichki iste'mol bozorini takomillashtirish uchun olib borilayotgan samarali tadbirlari o'z ta'sirini bermoqda. Bu borada ichki iste'mol bozorimizni xaridor talab, sifatli tovarlar bilan to'ldirish, nafaqat mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini va daromadini jadallashtiradi, bu jarayon avvalam bor aholimizning iste'mol xarajat ko'rsatkichlarining keskin oshishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu omillar asnosida 2013 yilda 2000 yilga nisbatan aholimizning iste'mol xarajatlari 9,5 barobar oshganining o'zi aholimiz hayot tarzini ishonchli sur'atlar bilan oshib borayotganidan dalolat beradi.

Buning isboti tariqasida Prezidentimiz O'zbekistonda o'z ma'ruzasida keltirgan raqamlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi muttasil o'sib borayotganidan, ayni vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlarni xarid qilish va xizmatlar uchun to'lanadigan sarf-xarajatlar miqdoriga munosib ravishda ko'payganini ta'riflab o'tdilar. Barcha oilalarda uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlarni xarid qilish borasidagi ahvol ham tubdan o'zgardi. Xonadonlarni hozirgi zamon muzlatkichlar (xolodilnik), konditsioner, shaxsiy kompyuter, raqamli televizorlar, mobil telefon va boshqa zamonaviy maishiy texnika vositalari bilan ta'minlash darajasi jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda.

Aholimizning iste'mol tarkibi bo'yicha ham yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish hisobidan o'zgarimoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni (birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini) iste'mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ohirgi yillarida aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi (assortimenti) o'nlab barobar oshdi.

Aholining xarid qobiliyati, ya'ni uning oylik maosh va pensiya hisobidan eng zarur iste'mol mahsulotlarini sotib olish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarining ta'minlanishi sezilarli darajada yaxshilanib borayotganini aks ettiradi.

Misol uchun, mustaqillik yillarida go'sht iste'moli ó 1,4 marta, sut ó 1,3 barobar, sabzavot va poliz mahsulotlari ó 2,6 marta, kartoshka ó 2 barobar, mevalar iste'moli ó 6,4 karra oshdi.

Prezidentimizning ma'ruzasida aholining iste'mol xarajatlarini ta'riflovchi yana bir yangi tarafi - o'zimizda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillarni sotib olish darajasi o'sgani e'tiborlidir. Bu davlatimizda ishlab chiqilgan va hozirgi davrda aholining xaridorboplik salohiyatlarining oshishi omillaridan biri deb baholasak to'g'ri bo'ladi. O'zingiz taqqoslab ko'ring- 2000 yilda har 100 ta oilaga o'rtacha 20 ta yengil avtomobil to'g'ri kelgan bo'lsa, 2013 yili bu raqam 41,4 taga yetdi.⁸

Ijtimoiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizdagi oilalarning 11 foizdan ortig'i ikkitadan yengil avtomobilga ega.

2015 yilda esa har 100 oilaning 42 tasi yengil avtomobillarga ega bo'lib, bu besh yil avvalgi ko'rsatkichdan 1,5 barobar ko'p, 47 ta oila shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan va bu davrda o'sish 3,9 barobarni tashkil etdi. Shuningdek, har 100 ta oiladan 31 tasi konditsionerga ega yoki bu boradagi o'sish 1,7 barobarga teng, har 100 ta oilaga 234 ta mobil telefon to'g'ri kelmoqda yoki bu sohadagi o'sish 1,6 barobarni tashkil etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida mustaqil tashkilotlar guruhi va xalqaro ekspertlar ishtirokida 2015 yilda 158 ta davlatda o'Dunyoing eng baxtli mamlakatlari degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifoda etadigan ushbu indeks bo'yicha O'zbekiston 44-o'rinni egalladi.⁹

Aytish joizki, yurtimiz 2013 yilda bu reytingda 60-o'rinda edi.

⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. 2014 yil 17 yanvar. Toshkent shahri.

⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. 2016 yil 15 yanvar. Toshkent shahri

Prezidentimiz I.Karimov majlis katnashchilariga qarata: o'bu ko'rsatkichlarning barchasi avvalo nimadan dalolat beradi?, deb o'zi shu savolga mag'rurlik va ishonch ila javob qildilar - Bu ko'rsatkichlar eng avvalo bizning o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsad o' dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish yo'lidan izchil va bosqichma-bosqich ilgarilab borayotganimizning isboti bo'lib, ana shu mamlakatlar erishgan marralarga biz ham albatta yetamiz, degan ishonchni tug'diradi.¹⁰

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy printsiplaridan biri sifatida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida 1991o2013 yillar davomida O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari 8,6 barobar oshdi.¹¹

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir.

2013 yilda aholining tadbirkorlik faoliyatidan olayotgan daromadi 55,2 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, O'zbekiston aholisi daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.

Aholining jamg'arma mablag'lari iste'mol byudjetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yurtimizda aholi omonatlari hajmi barqaror oshib bormoqda. Ayniqsa, yuqori o'sish sur'atlari 2000o2013 yillarga to'g'ri keladi, bu davrda mazkur ko'rsatkich 1995 yilga nisbatan 34,2 barobar oshganligi buning yorqin dalilidir.

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. 2014 yil 17 yanvar. Toshkent shahri.


¹¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. 2014 yil 17 yanvar. Toshkent shahri.

2013 yilda O'zbekistonda barcha investitsiyalarning miqdorining 20 foizdan ortig'ini aholi investitsiyalari tashkil etgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'dim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda (2.1.1-rasm).


Rasmdan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 2017 dollarni tashkil etdi. O'rtacha oylik nominal ish haqi esa, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2011 yilning yanvar oyida 1162,6 dollarga yetdi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2.1.1-rasm. Aholi pul daromadlarining oshib borish tendentsiyalari, mlrd. soʻm (yil boshiga nisbatan).

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar oʻrtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, yaʼni 2011 yilda 1991 yilga nisbatan AQSh dollari qiymatida 2,7 barobar, oʻrtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini taʼminladi.



2.1.2-rasm. Aholi pul daromadlari differentsiyasi darajasi.

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari.

Pul daromadlarining oshishi va aniq yoʻnaltirilgan ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlarining oʻrtacha daromadlarining oʻsib borishida muhim omil boʻldi. Bunda aholining turli guruhlarida daromadlari darajasidagi tafovutni aks ettiradigan Jini koeffitsienti 1991-2013 yillarda 0,40 dan 0,23 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan davlatlardagi oʻrtacha koʻrsatkichga mos keladi (2.1.2-rasm).


Aholi farovonligi o'sishining muhim tarkibiy qismi xizmat ko'rsatish va xizmat turlariga nisbatan oshib borayotgan talabning ta'minlanishi bilan bog'liqdir. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi ijrosi davrida ó 2007-2013 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol hajmi 1,8 barobar ko'paydi. Shu bilan birga, bu davrda xizmat bozori tarkibini takomillashtirish borasida qabul qilingan izchil chora-tadbirlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bank, moliya va sug'urta xizmatining yangi istiqbolli turlari jadal rivojlanishini ta'minladi va ular ushbu davr mobaynida 3 barobar o'sdi.

Aholi to'lov qobiliyatining ortishi ko'rsatilayotgan pulli xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbatan 1992 yil bilan qiyoslaganda, 2,2 barobar, maishiy xizmatlar bo'yicha esa 8,3 barobar o'sishini taqozo etdi, shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana tovar aylanmasi, birinchi navbatda, nooziq-ovqat mahsulotlari savdosining o'sishi hisobidan 4,3 barobar oshdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida 1991-2012 yillar davomida O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari 8,6 barobar oshdi.

Yalpi daromadlar tarkibida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko'rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo'ldi.

Mamlakatimiz xukumati tomonidan aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o'rta sinfni shakllantirish imkonini berdi (2.1.3-rasm).



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2.1.3-rasm. Jamiyat tarkibida o'rta qatlamning ulushi.

Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yilda o'rtacha daromadga ega bo'lganlar aholining 18 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda, uy xo'jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko'ra, bu ko'rsatkich 24 foizga yetgani ayon bo'ldi. 2013 yilda esa 71 foiz uy xo'jaliklari o'rtacha darajadan kam bo'lmagan barqaror daromadga ega bo'lgan.

Oilaning yalpi daromadlari oshib borishi bilan bir vaqtda yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratildi.

Agar 1991 yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46-48 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 78,8 foizdan oshdi. Shu bilan birga, 2013 yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1991 yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi (2.1.2-jadval).

2.2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi yalpi xarajatlarining tarkibi, foizda

Ko'rsatkichlar	1991 y	2013 y	2014 y	2015 y
1. Jami xarajatlar tarkibi	100,0	100,0	100,0	100,0
ulardan:				
isteʼmol xarajatlari	81,1	79,8	79,7	82,5
Isteʼmoldan tashqari xarajatlar (soliqlar, aʼzolik badallari va boshqa majburiy toʻlovlar)	7,1	20,2	20,2	17,4
2. Jami isteʼmol xarajatlari	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:				
oziq-ovqat mahsulotlari uchun	58,3	49,5	49,5	48,0
nooziq-ovqat mahsulotlari uchun	31,5	29,9	29,9	32,2
xizmatlar uchun toʻlovlar	10,2	20,6	20,6	19,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, 2013-2015 yillar davomida jami xarajatlar tarkibida isteʼmol xarajatlarining ulushi 79,8 foizdan 82,5 foizga ortgan, isteʼmoldan tashqari xarajatlar ulushi 20,2 foizdan 17,4 foizga qisqargan, aksincha, pul omonatlari va jamg'armalar ulushi 11,8 foizdan 15,9 foizga ortgan. Shu bilan birga, oilalarning isteʼmol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashtirib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlar uchun xosdir.

2.2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol qilinishi (aholi jon boshiga, kg hisobida).

Ko'rsatkichlar	2013 y	2014 y	2015 y
Non va non mahsulotlari	178	178	179
Go'sht va go'sht mahsulotlari	42	43	44
Sut mahsulotlari	260	280	282
Tuxum (dona)	210	211	216
Sabzavot va poliz ekinlari	276	277	279
Kartoshka	55	56	56
O'simlik yog'i va boshqa moylar	22	23	23
Shakar	27	30	32
Meva, jumladan, uzum	140	145	146


Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, 2013-2015 yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining iste'moli ortgan (2.2.3- jadval).

Ayni vaqtda iste'mol tarkibi ancha sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish hisobidan o'zgarmoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini iste'mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi o'nlab barobar oshdi.

Aholining xarid qobiliyati, ya'ni uning oylik maosh va pensiya hisobidan eng zarur iste'mol mahsulotlarining sotib olish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarining ta'minlanishi sezilarli darajada yaxshilanib borayotganini aks ettiradi. O'rtacha

oylik maosh xarid qobiliyatining o'sish dinamikasi, minimal iste'mol savati bilan qiyoslaganda, hozirgi vaqtda 7,2 barobar oshdi (2.2.4-rasm).



2.2.4-rasm. Oʻrtacha oylik ish haqining xarid qobiliyati (minimal iste'mol savatchasiga nisbatan, marta hisobida).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Aholining jamg'arma mablag'lari iste'mol byudjetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yurtimizda 1995-2010 yillarda aholi omonatlari hajmi barqaror oshib bordi. Ayniqsa, yuqori o'sish sur'atlari 2000-2013 yillarga to'g'ri keladi, bu davrda mazkur ko'rsatkich 28,6 barobar oshgan. Hozirgi vaqtda, so'rov natijalariga ko'ra, mamlakatimizdagi qariyb barcha xonadon sohiblari banklarda o'z jamg'arma mablag'lari o' omonatlariga ega.

Bozor munosabatlari chuqurlashib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanib borgani sayin aholining yalpi xarajatlari tarkibida yangi yo'nalish o' tadbirkorlik faoliyati uchun xarajatlar yo'nalishi paydo bo'ldi. Ularning ulushi hozirgi paytda 8,5 foizni tashkil etmoqda. O'z mohiyatiga ko'ra, bu usul oila xo'jaligining asosiy kapital uchun mablag' jamg'arishning samarali shakli bo'lib,

xususiy mulk asosida o'z daromadlarini shakllantirish va ko'paytirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi islohotlarning bosh maqsadi iqtisodiyotni yuksaltirishning ijobiy sur'atlariga erishish orqali aholining turmush farovonligini yuksaltirishdir.

2.2. Aholi bandligi va turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oʻrni.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar maqsadi inson va uning manfaatlari, farovonligini taʼminlash hamda insonni har tomonlama kamolga yetkazishga qaratilgandir. Bu maqsad birinchi marta 1990 yil 5 iyunda Prezidentimiz I. Karimov tomonidan «Oʻtmishdan saboq chiqarib, kelajakka ishonch bilan» deb nomlangan maʼruzasida «biz butun iqtisodiyotga ijtimoiy yoʻnalish baxsh etishni, uni insonga, uning talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratishni oʻzimizning asosiy vazifamiz deb bilamiz» - deb baralla aytilgan.

Iqtisodiyotning va xizmatlar sohasining barqaror yuqori oʻsish surʼatlari aholi daromadlarini, insonlar turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar miqdori 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar ulushi 2010 yildagi 47,1 foizga qaraganda 2015 yilda 52 foizga oshdi. 980 mingtadan ortiq ish oʻrinlari tashkil etildi, ulardan 60 foizdan ziyodi qishloq joylardadir, kasb-hunar kollejarining 480 mingdan ortiq bitiruvchilari ishga joylashtirildi. oʻKeksalarni eʼzozlash yili o Davlat dasturining barcha tadbirlarini amalga oshirish taʼminlandi. Davlat dasturi tadbirlarini moliyalashtirishga barcha manbalar hisobidan 2 trillion 246 milliard soʻm va 225 million dollardan ortiq mablagʻ yoʻnaltirildi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida oʻrin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini taʼminlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan toʻldirishda, aholini ish bilan taʼminlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori boʻlgan mulkdorlar sinfining, yaʼni oʻrta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini taʼminlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy

barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yoʻlidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini taʼminlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish oʻrinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni taʼminlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining oʻsishini taʼminlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Soʻnggi yillarda kichik biznes subʼektlarining mamlakatimizda yangi ish oʻrinlarini tashkil qilish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli boʻlib bormoqda (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval. Oʻzbekistonda yangi ish oʻrinlarini yaratishda kichik biznes subʼektlarining ulushi, ming kishi

Koʻrsatkichlar nomi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Yangidan tashkil etilgan ish oʻrinlari	661	940,5	950,0	956,2	973,5
shu jumladan:					
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda	374,3	391,8	480,0	600,1	602,2
Foiz hisobida	57,0	41,7	50,5	62,8	61,9
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi bandlarning jami iqtisodiyotdagi band boʻlganlar soniga nisbatan ulushi, foiz hisobida	72,7	74,2	74,4	74,8	75,0

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari.


Jadvaldan koʻrinadiki, keyingi davrda mamlakatimizda yiliga 1 mln.ga yaqin yangi ish oʻrinlari tashkil etilayotgan boʻlsa, ularning yarmidan koʻpi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga toʻgʻri kelmoqda.

2013 yil davomida ish oʻrinlarini tashkil etish va aholi bandligini taʼminlash boʻyicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida qariyb 970 ming kishi ish bilan taʼminlandi. 2015 yilda esa bu koʻrsatkich 980 mingtani tashkil etdi.

Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat koʻrsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilib, ushbu sohalarda 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod yangi ish oʻrinlari yaratildi¹². Bu esa kichik biznes sohasining aholi bandligini taʼminlash va yangi ish oʻrinlarini tashkil qilish muammosini hal etishda muhim oʻrin egallashini koʻrsatmoqda.

Soʻnggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta eʼtibor berilishi hamda qoʻllab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Agar mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasi 1991 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi atigi 1,5 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2000 yilda ushbu koʻrsatkich 31 foizga, 2013 yilda esa 55,8 foizga yetdi, yaʼni 2000 yilga nisbatan deyarli 21 barobar, 1991 yilga nisbatan esa 37 barobar oʻsdi (2.2.1-rasm).

¹²2013 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014 yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari. - <http://www.cbu.uz/uzc/node/42573>



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2.2.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foizda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyot boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi.

Bugungi global moliyaviy iqtisodiy inqiroz kechayotgan bir davrda Respublikamizdagi kabi, Xorazm viloyatida ham Muhtaram yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalarni izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida ishlab chiqarish va xalq xo'jaligi tarmoqlarida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, Xorazm viloyatining asosiy ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, viloyat bo'yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi 2015 yilda 5692,6 mlrd.so'mni yoki o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,1 foizni tashkil qildi. Aholi jon boshiga yaratilgan yalpi hududiy mahsulot 3287863,0 so'mga yoki o'sish sur'ati 108,1 foizga teng bo'ldi.

Bunga iqtisodiyotning muhim sohalari tarkibidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 21,9 %, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish 24,8 %, kapital qo'yilmalar 5,0 %, pudrat ishlari 13,2 %, chakana savdo aylanmasi 12,5 %, pullik xizmat 11,7 % ga ko'payishi asosiy omil bo'ldi.

Mamlakatimizda iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar aholini iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini to'liqroq qondirish erishilishini ta'minlamoqda.

Xorazm viloyatida 2015 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga asosiy ko'rsatkichlar to'g'risida

MA'LUMOT

2.2.2-jadval

(hajm-amaldagi narxlarda, o'sish sur'ati -taqqoslama narxlarda)

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2014 yil yanvar-dekabr oylarida	2015 yil yanvar-dekabr oylarida	o'tgan yilning shu davriga nisbatan	
					(+,-)	(%)
	O'rtacha doimiy aholi soni (tezkor)	ming kishi	1699,9	1731,3	31,5	101,9
	Yalpi hududiy mahsulot	mlrd.so'm	4793,7	5692,6	898,9	110,1
	Aholi jon boshiga yaratilgan yalpi hududiy mahsulot	so'm	2820153,5	3287863,0	467709,6	108,1
	Sanoat mahsulotlari i/ch	mln.so'm	1808651,8	2351684,1	543032,3	121,9
	Aholi jon boshiga Sanoat mahsulotlari i/ch		1064,0	1358,3	294,3	127,7
	Xalq iste'mol mollari	mln.so'm	1205471,2	1504242,0	298770,7	124,8
	Aholi jon boshiga xalq iste'mol mollari i/ch	ming so'm	709,2	868,8	159,7	122,5
	Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha:					
	Chakana savdo aylanmasi	mln.so'm	2343308,4	2779138,3	435829,9	112,5

	aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi	ming so'm	1378,5	1605,2	226,7	110,5
	Jami xizmatlar	mln.so'm	2185570,3	2603357,3	417787,0	113,4
	aholi jon boshiga to'g'ri keladigan jami xizmat	ming so'm	1285,7	1503,7	217,9	111,3
	Pullik xizmat	mln.so'm	963569,4	1198305,0	234735,6	111,7
	aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pullik xizmat	ming so'm	566,9	692,1	125,3	109,6
	Qishloq xo'jaligida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari i/ch	mln.so'm	2236784,1	2470864,9	234080,8	105,9
	aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari i/ch	ming so'm	1315,9	1427,2	111,3	102,0
	Kapital qurilish sohasi bo'yicha:					
	Jami o'zlashtirilgan kapital mablag'i	mln. so'm	1306700,5	1397841,3	91140,8	107,1
	aholi jon boshiga qishloq kapital qo'yilmalar	ming so'm	768,7	807,4	38,7	105,0
	Pudrat ishlar hajmi	mln. so'm	961376,3	1145506,5	184130,2	113,2
	aholi jon boshiga pudrat ishlari	ming so'm	565,6	661,6	96,1	111,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi majlisida ish o'rinlari tashkil etish va mamlakat aholisi bandligini ta'minlashni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim ustuvor masalasi hamda xalqimizning yashash darajasi va sifati yuksalishining zarur sharti sifatida belgilab berdi.

Mamlakatimiz parlamenti tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq 2014-yilda salkam 1 million ish o'rnini tashkil etish ko'zda tutilmoqda¹³.

2014 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 iyuldagi majlisining 3-sonli bayonnomasiga (9-band) muvofiq tumanlar va shaharlar kesimida, mehnat bozori ehtiyojini hisobga olgan holda, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini, mamlakatimiz hududlarini rivojlantirish dasturlariga mos ravishda ishlab chiqildi.

Dastur yangi ob'ektlarni ishga tushirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, qayta jihozlash va amal qilib turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan yanada to'la foydalanish, kichik biznesni, asosan sanoatda, qurilishda, xizmatlar ko'rsatish va servis sohalarida jadal rivojlantirish, infratuzilma, kommunikatsiya va uy-joy qurilishi ko'lamini, uy mehnati shakllarining imkoniyatlarini kengaytirish, ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash hisobiga ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan. Xorazm viloyatida 2016 yil yanvar oyida aholi bandligini ta'minlash natijalarini tahlil qilamiz.

¹³Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. ó T.: O'zbekiston 2014.

Xorazm viloyati aholi bandligini ta'minlash to'g'risida ma'lumot

2.2.3-jadval

T/ r	Shahar va tumanlar nomi	01.01.16 y. holatiga aholi soni (ming kishi)	Mehnatga layokatli axoli soni (ming kishi)	Iqtisodiy faol aholi (ming kishi)	Iqtisodiyot da band aholi soni (ming kishi)
	Viloyat bo'yicha	1 747,0	963,1	712,1	696,0
	Urganch shahri	138,6	101,9	77,6	75,6
	Bog'ot tumani	152,8	80,4	64,0	62,9
	Gurlan tumani	138,9	80,8	66,1	64,8
	Qo'shko'pir tumani	160,1	84,5	65,4	64,1
	Urganch tumani	182,5	93,8	68,9	67,9
	Xazarasp tumani	231,6	118,3	65,1	63,5
	Xonqa tumani	173,5	91,2	71,6	69,7
	Xiva tumani	221,6	115,9	74,9	73,1
	Shovot tumani	157,7	84,7	67,5	65,3
	Yangiariq tumani	108,3	60,3	50,7	49,8
1	Yangibozor tumani	81,4	51,3	40,3	39,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Xorazm viloyati aholi bandligini ta'minlash va ishsizlar to'g'risida ma'lumotni tahlilini qiladigan bo'lsak. Bunda 2016-yilda mehnatga layoqatli aholi soni umumiy aholi sonining 55,13 foizini tashkil qiladi. Iqtisodiy faol aholi esa 40,76 foizini tashkil qiladi, iqtisodiyotda band aholi soni 39,84 foizni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlarni tumanlar bo'yicha taqsimlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u holda 231,6 ming kishi bilan Xazarasp tumani eng ko'p aholi to'g'ri keladi. Eng kam aholi soni bilan oxirgi o'rinni 81,4 ming kishi bilan Yangibozor tumani egallaydi. Mehnatga layoqatli aholi jixatidan ham huddi shu o'rinlar

tegishli xisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholi Urganch shaxrida 73,5 foiz, Bogʻot tumanida 52,6 foiz, Gurlan tumanida 58,2 foiz, Koʻshkoʻpir tumanida 52,8 foiz, Urganch tumani 51,4 foiz, Xazarasp tumanida 51,1 foiz, Xonqa tumani 52,6 foiz, Xiva tumanida 52,3 foiz, Shovot tumani 53,7 foiz Yangiariq tumanida 55,7 foizni va Yangibozor tumanida 63 foizni tashkil qiladi. Bu yerda Urganch shaxri birinchi oʻrinni egallaydi.

Iqtisodiy faol aholi miqdori jihatidan qaraganimizda 77,6 ming kishi bilan birinchi oʻrinni egallaydi. Oxirgi oʻrinni esa 40,3 ming kishi bilan Yangibozor tumani turadi. Iqtisodiy aholi miqdorining umumiy aholi miqdoridagi ulushlarini koʻrib chiqadigan boʻlsak, Urganch shaxrida 56 foini, Bogʻot tumanida 42 foizni, Gurlan tumanida 47,6 foizni, Koʻshkoʻpir tumanida 40,9 foizni, Urganch tumanida 37,8 foizni, Xazarasp tumanida 28,1 foizni, Xonqa tumani 41,3 foizni, Xiva tumani 33,8 foizni, Shovot tumanida 42,8 foizni, Yangiariq tumanida 46,8 foizga, Yangibozor tumanida esa 49,5 foizni tashkil qiladi. Bu koʻrsatkich boʻyicha Urganch shaxri eng yuqori va eng past koʻrsatkichni Xazarasp tumani egallaydi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan eʼtibor qaratilayotgan, aholini ish bilan bandligini, turmush faravonligini oshirishda, iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda muhim deb hisoblanayotgan yoʻnalishlardan biri kasanachilik hisoblanadi.

Shuningdek uy mehnatining barcha shakllari shu jumladan, korxonalar bilan mehnat shartnomalari bo'yicha kooperatsiyalshgan uy mehnati, hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish asosan xotin qizlar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy nochor toifalarini ishga joylashtirishga yordam beradi.

2.3. Aholi hayot darajasi va farovonligini oshirishning asosiy yo-nalishlari.

Mamlakatimizda aholi turmush darajasi va sifatini oshirishda eng avvalo mahallalarda istiqomat qilayotgan oilalarda, ko-p qavatli uylardagi har bir fuqarolarning va ularning farzandlarining oziq ó ovqatga, dam olish, sport inshootlaridan foydalanish va davolanish muassalarida ehtiyoji munosib imkonlarni muhayyo qilish va yanada rivojlantirishga yo-naltirilgan chora-tadbirlarga e-ibor qaratish zarur bo-ladi.

Mamlakatimizda aholi hayot darajasi va sifatini oshirishning asosiy yo-nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Aholining real daromadlarini oshirish tadbirlari. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning yuqori sur-atlarda barqaror o-sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko-rib chiqilishi, ta-olim, sog-liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag-batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta-aminladi.

2. Aholini ijtimoiy zarur mehnat faoliyati bilan bandlikka intilish. Aholi farovonligini oshirishda bandlik masalasining o-rni katta. Bugungi kunda mehnatga layoqatli aholining bandligini ta-aminlash maqsadida yangi ish o-rinlari yaratayotgan ish beruvchilar rag-batlantirilmoqda, ularga soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilmoqda; mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari ko-ribilmoqda; aholini ish bilan ta-aminlashning eng samarali vositalari bo-lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko-rsatish va servis sohasi yanada jadal sur-atlarda rivojlantirilmoqda; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo-lgan toifalari moddiy qo-llab-quvvatlanmoqda, ular uchun ish o-rinlarini kvotalash tartibi yo-lga qo-yildi; davlat va mahalliy byudjet mablag-lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlari tashkil etilmoqda; tashqi va ichki migratsiyani tartibga solishga e-ibor

kuchaytirilmoqda.

Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholi bandligini taʼminlash maqsadida har yili yangi ish oʻrinlari yaratilmoqda.. Bu ish oʻrinlari yangi yirik sanoat obʼektlarini ishga tushirish, ishlab turgan korxonalarini rekonstruktsiya qilish va kengaytirish, kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni, xizmat koʻrsatish va servis sohalarini rivojlantirishni bundan buyon ham ragʻbatlantirish, kasanachilik imkoniyatlarini, shu jumladan, yirik korxonalar bilan kooperatsiyalashgan kasanachilik imkoniyatlarini kuchaytirish hisobiga tashkil etiladi.

Yurtimizda ishlamayotgan onalarni ijtimoiy himoya qilishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 yanvardagi oʻAholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yoʻnaltirilgan tarzda qoʻllab-quvvatlashning 2002o2003 yillarga moʻljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidaoʻgi 33-sonli qarorining qabul qilangani buning yaqqol isbotidir. Unga koʻra, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari tomonidan ishlamayotgan onalarga bolani ikki yoshga toʻlgungacha parvarish qilish boʻyicha har oylik nafaqa tayinlanadi va toʻlanadi. Bola parvarishlash uchun nafaqa, parvarishlayotgan bolalar sonidan va nafaqa oluvchi shaxsning mehnat stajidan qatʼi nazar, har oyda Oʻzbekistonda oʻrnatilgan eng kam ish haqining 200 foizi miqdorida toʻlanadi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga eng muhtoj qatlamlaridan biri oʻ bu kam taʼminlangan oilalardir. Kam taʼminlangan oilalarning ijtimoiy himoyasini taʼminlash maqsadida qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 avgustdagi oʻKam taʼminlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari toʻgʻrisidaoʻgi 434-sonli qarorida kam taʼminlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va toʻlash tartibi bayon etilgan. Unga koʻra, kam daromadli oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga yuklatilgan. Bunday moddiy yordam oilaga 3 oy muddatga tayinlanadi va eng kam ish haqining

o'sha vaqtda amalda bo'lgan 1,5 barobaridan 3 barobarigacha bo'lgan miqdorda belgilanadi.

Davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012 yilning 7 iyunda o'ljtimoiy nafaqalar tayinlash tartibini yanada takomillashtirish hamda oilalarning jami daromadlari yanada to'liq hisobga olinishini ta'minlash to'g'risida o'gi 165-sonli qarori qabul qilindi.

Respublikada mazkur qarorga muvofiq hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ijtimoiy nafaqalar tayinlash va to'lashning manzilliligini oshirish maqsadida quyidagilar amalga oshirilmoqda:

— O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining taqdimnomalariga ko'ra nafaqalar va moddiy yordam olish uchun oila a'zolarining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirilmoqda;

— Respublika o'Mahalla o' jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda aholi o'rtasida ehtiyojmand oilalarga nafaqa va moddiy yordam tayinlash uchun o'rtacha oylik jami daromad miqdorini hisob chiqish tartibi to'g'risida keng tushuntirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Bundan tashqari, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish va manzilli yordamlarni kuchaytirishga quyidagilar hisobiga erishish rejalashtirilgan:

- amal qilayotgan imtiyozlar va nafaqa to'lovlari tizimini tartibga solish, manzilli xarakterga ega bo'lmagan imtiyozlarni, avvalambor, bosqichma-bosqich ayrim professional guruhlarga taqdim etiladigan imtiyozlarni kamaytirish va shuning hisobiga ko'proq ehtiyoj sezayotgan oilalarga imtiyozlar hajmini oshirish;

- natural ko'rinishda beriladigan imtiyozlarni mos pul to'lovlari bilan almashtirish jarayonini tugallash;

- norasmiy sektorda tadbirkorlik faoliyatidan, shuningdek pul o'tkazmalari hisobiga daromad olayotgan oilalarni chiqarib tashlash yo'li bilan moddiy

yordamga muhtojlik sezayotgan oilalarni aniqlash uslubiyatini takomillashtirish. Tejab qolingan mablagʻlar eng muhtoj oilalarga moddiy yordam koʻrsatish uchun qayta yoʻnaltiriladi;

- joylarda muhtojlarga qoʻshimcha yordam koʻrsatish, shuningdek, mablagʻlarni ijtimoiy himoyaning ayrim moddalari oʻrtasida qayta taqsimlash boʻyicha qarorlar qabul qilishda davlat organlari mustaqilligini kengaytirish;

- oʻzini-oʻzi boshqarish organlarida kam taʼminlangan oilalarga nafaqa toʻlovlari toʻlashni tashkil qilish bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish;

- aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari mablagʻlar, jumladan xayriya tashkilotlari va homiylarning mablagʻlarini jalb qilish, bu kam taʼminlangan oilalarga ijtimoiy toʻlovlar hajmi va qamrovini oshirishga imkon beradi;

- ayrim nafaqa toʻlovlari va imtiyozlarni tugatish natijasida boʻshagan mablagʻlarni muhtoj oilalarga manzilli nafaqa toʻlovlarini moliyalashtirish hajmini oshirishga yoʻnaltirish;

- minimal ijtimoiy standartlarni, jumladan mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda, hisob-kitob qilish usulini takomillashtirish;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun aholining ijtimoiy zaif guruhlari, avvalambor, talab qilinmagan mehnat salohiyatiga ega kam taʼminlangan oilalarni kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini taʼminlashga yoʻnaltirilgan mikromoliyalashtirish institutlarini kengaytirish.

Bir soʻz bilan aytganda, halqimizning oʻMehnatdan kelsa boylik oʻ turmush boʻlar chiroyliko degan maqoli zamirida mujassam boʻlgan haqiqatni hayotimiz tarziga aylantirish yoʻlida yangi yilda ham katta-katta ishlarni amalga oshirish zarur¹⁴.

¹⁴Inson manfaati, huquq va erkinliklarini taʼminlash, hayotimizning yanada erkin va obod boʻlishiga erishish oʻ bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasi. oʻ Xalq soʻzi gazetasi, 2012 yil 8 dekabr`.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz taraqqiyotini pirovard maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot kechirishga qaratilgan ekan, demak, iqtisodiy ko'rsatkichlar faqat o'rtacha ish haqi yoki boshqa o'rtacha ko'rsatkichlar bilan emas, balki har bir shaxs, fuqaroning farovonligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, o'tkazilayotgan chuqur tub islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy raqobatni rivojlanishini, iste'mol bozorini tovarlar va hizmat turlari bilan to'ldirishni, shuningdek, kichik biznes korxonalarini va tadbirkorlikning keng qatlamini yaratishni taqozo etadi.

Kichik biznesni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini yuksaltiribgina qolmasdan, oila farovonligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oila farovonligini manbai bozor munosabatlari sharoitida tubdan o'zgardi. Chunki, oldin oila daromadi asosan ish haqidan tarkib topgan bo'lsa, endilikda bu manba biznesga asoslangan oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanishi lozimligini hayot taqozo qilmoqda. Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, aholining, ayniqsa oilalarning turmush sharoitini, ya'ni farovonligini ifodalash uchun tegishli ko'rsatkichlar yoki ularni aniqlovchi usullar mamlakatimiz olimlari tomonidan hamon ishlab chiqilmoqda.

1. Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va mamlakatni isloh qilish sharoitida ustuvor vazifa aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida KBXT, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirishdan iborat.

2. Mehnat bozori va aholining optimal bandligini ta'minlash, turmush farovonligini uzluksiz o'sib borishini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz mintaqalaridagi maxalliy hokimliklarning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi

lozim:

- aholini ish bilan taʼminlash va turmush farovonligini oshirib borish sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish;

- aholini ish bilan bandligini taʼminlash va farovonligini oshirish yuzasidan xududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mehnat bozorining barqarorligini taʼminlashga koʻmaklashuvchi chora tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Fikrimizcha, joylarda aholini ish bilan taʼminlash va turmush farovonligini oshirishning hududiy dasturining vazifalarini quyidagilar boʻlmogʻi kerak:

- mehnat bozorini tartibga solish;

- aholining iqtisodiy faolligini oshirib borish;

- mehnat resurslaridan unumli foydalanish;

- ishsizlik darajasining yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan meʼyorlardan oshib ketishini oldini olish;

- turli mulkchilik shakllari va tarmoqlar boʻyicha ish joylari yaratish surʼatlari va hajmlarini taʼminlash;

- ish bilan bandlar va ishsizlarning ijtimoiy muhofazasi kilish.

4. Aholi turmush farovonligi va bandligini oshirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqishda maʼlumot manbalari sifatida quyida keltirilgan manbalar xizmat qiladi:

- Ishsiz fuqarolar monitoringi

- aholi soni demografik prognozlari

- Xududdagi infratuzilma

- Ish oʻrinlari tashkil etish uchun bino, inshootlarni mavjudligi

- Sotish bozorlarining kengayishi

- Yangi ish oʻrinlarini tashkil etishning moliyaviy imkoniyatlari

- Maxalliy xokimlikning va boshqa davlat idoralarining imkoniyatlari

5. Aholini ish bilan taʼminlash va turmush farovonligini oshirish hududiy dasturlarining asosiy yoʻnalishlari sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Uy mehnati va yirik sanoat korxonalar bilan kasanachilik xizmatlarini rivojlantirish
- Xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish
- Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish va mavjud quvvatlaridan unumli foydalanish, korxonalarni kengaytirish hisobiga ish o'rinlarini ko'paytirish;
- Bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish

Hozirgi paytda oilalar daromadining ikkidan bir qismi tadbirkorlik evaziga paydo bo'lmoqda. Kelajakda oila ehtiyojining 60 % ni shu yo'l bilan qoplanishiga erishish lozim.

Bu bizning mamlakatimiz uchun o'ta muhimdir. Chunki, Yevropa mamlakatlarida bir ishlovchiga 0,7 kishi mehnat yoshiga yetmagan bolalar va nafaqadagi qariyalar to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich bizda 2,7 kishini tashkil qiladi. Tabiiyki, bunday sharoitda faqat oylik maosh bilan oilaning ehtiyojini to'liq ta'minlab bo'lmaydi. Shu tufayli, kelajakda har bir oilaning farovonligini ta'minlash uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida ishonch bilan aytish mumkinki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'sishi bilan biz mamlakatimizda tayanchimiz bo'lgan mulkdorlar o'rta sinfini shakllantirish vazifasini bevosita hal qilishga erishamiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muhim bo'g'inga aylanadi. Iqtisodiyotni izchil rivojlantirishning eng muhim omili, jamiyatimiz ijtimoiy va siyosiy barqarorligining kafolati, mamlakatimizni taraqqiyot yo'lidan olg'a yetaklaydigan faol harakatlanuvchi kuchi sifatida amal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan boshlangan isloxotlarimizni yangi bosqichga ko'tarish - bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimizdir. Asarlar. 23-jild.- T. : "O'zbekiston", 2015.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajaki yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. - T. : "O'zbekiston", 2015.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi O'zbekistonda BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidaögi 21-sonli qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011 yil. 4-5-son. 35-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, O'zbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi. O'zbekiston: Amaliy qo'llanma. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti printsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta'minlanishi, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning o'Tarixiy xotira va inson omili o' buyuk kelajagamizning garovidirö risolasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'dim vazirligi. o Toshkent: o`qituvchiö NMIU, 2012, 78-79-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. 17 yanvar 2014 yil. Toshkent shahri
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga

moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasidan. 15 yanvar 2016 yil. Toshkent shahri

8. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini taminlash, hayotimizning yanada erkin va obod boʻlishiga erishish oʻ bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasi. oʻ oʻXalq soʻzi gazetasi, 2012 yil 8 dekabr.

9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga koʻtaradigan yil boʻladi» mavzusidagi maʼruzasini oʻrganish boʻyicha oʻquv qoʻllanma. oʻ T.: «Oʻqituvchi» NMIU, 2012. oʻ 132-6etlar.

10. Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990oʻ2010 yillar) asosiy tendentsiya va koʻrsatkichlari hamda 2011oʻ 2015 yillarga moʻljallangan prognozlari: statistik toʻplam. oʻ T.: oʻOʻzbekistonö, 2011, 6-7-b.

9. Oʻzbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yoʻlida. Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., Gʻafurov U.V. va Neʼmatov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. oʻ 5 b.

10. Xodiev B.Yu, Qosimova M.S., Samadov A.N Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. oʻT.: TDIU, 2010.

11.Inson taraqqiyoti.prof. Abduraxmanov K.X. va boshqalar. Darslik. Toshkent.: oʻFan va texnologiyalarö nashriyoti. 2013 yil.

12.Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Abduraxmanov K.X. va boshqalar. Darslik. Toshkent.: oʻIqtisodiyotö nashriyoti. 2013 yil.

13.S.K.Salaev, N.B.Fayzullaev.B.U.Tadjiev O`zbekistonda oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo`nalishlari. Toshkent-2011

14. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining tegishli yillar bo`yicha statistik to`plamlari.

15. [.www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)

16. [.www.stat.uz](http://www.stat.uz)

17. www.gov.uz